

Buxoro viloyatida sog'liqni saqlash

2024- yil yakuni bo'yicha.


- I. Buxoro viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
- II. Buxoro viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari
- III. Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari
- IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar
- V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari

Shifoxona muassasasi – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Buxoro viloyatidagi shifoxona muassasalari soni


(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakuni bo'yicha Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni **134 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **16 taga** ko'paydi. Umumiy shifoxona muassasalari sonidan kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni **66 tani** tashkil etdi.

Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming birlik)



2024- yil yakunida Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni **9,8 mingtaga** yetdi va 2023 yilga nisbatan **0,5 mingtaga** ko'paydi.

Shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Shifoxona muassasalari soni		shundan, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni		Bemor o'rinlari soni (ming birlik)	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Buxoro viloyati	134	100,0	66	100,0	9,8	100,0
<i>shaharlar:</i>						
Buxoro sh.	64	47,8	31	47,0	4,9	50,0
Kogon sh.	8	6,0	4	6,0	0,3	3,1
<i>tumanlar:</i>						
Olot	4	3,0	1	1,5	0,3	3,1
Buxoro	17	12,7	10	15,2	0,7	7,1
Vobkent	5	3,7	1	1,5	0,4	4,1
G'ijduvon	10	7,5	6	9,1	0,8	8,1
Jondor	3	2,2	1	1,5	0,4	4,1
Kogon	4	3,0	2	3,0	0,2	2,0
Qorako'l	6	4,5	5	7,6	0,6	6,1
Qorovulbozor	1	0,7	-	-	0,1	1,0
Peshku	5	3,7	3	4,6	0,3	3,1
Romitan	5	3,7	1	1,5	0,4	4,1
Shofirkon	2	1,5	1	1,5	0,4	4,1

2024- yil yakuni bo'yicha eng ko'p shifoxona muassasalari Buxoro shahrida (**64 ta**) joylashgan bo'lsa, boshqa tumanlarda past ko'rsatkich Qorovulbozorda (**1ta**) qayd etilgan. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining eng ko'pi Buxoro shahrida (**31 ta**)ga to'g'ri kelgan, Qorovulbozor tumanida esa umuman mavjud emasligi qayd etilgan.

Shifoxona muassasalaridagi eng ko'p bemor o'rinlari Buxoro shahri (**4,9 mingta**)da qayd etilgan bo'lib, boshqa tumanga nisbatan eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Shifoxona muassasalari soni](#)


¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

Shifoxona muassasalari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni
10 000 aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari soni

II. Buxoro viloyatidagi **ambulatoriya-poliklinika muassasalari**

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari – aholining ushbu muassasalarga qatnashi yoki shifokorlarni uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalardir (poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarining poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) vrachlik punktlari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslahat xonalari va boshqalar).

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakunida Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **593 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **7 taga** ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **379 tani** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **1taga** kamaydi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Buxoro viloyati	593	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Buxoro sh.	182	30,8
Kogon sh.	23	3,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	18	3,0
Buxoro	49	8,3
Vobkent	34	5,7
G'ijduvon	74	12,5
Jondor	40	6,7
Kogon	19	3,2
Qorako'l	36	6,1
Qorovulbozor	8	1,3
Peshku	28	4,7
Romitan	37	6,2
Shofirkon	45	7,6

2024- yil yakuni bo'yicha Buxoro shahrida eng ko'p ambulatoriya-poliklinika muassasalari (**182 ta**), eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (**8 ta**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni](#)

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi](#)

III. Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari


Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash muassasalarida va boshqalarda ishlaydigan oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shifokorlar kiradi.

O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiyot va sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalar uylari va

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.


boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.

**Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan
barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni**
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuniga ko'ra, Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni **6,7 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **0,1 ming kishiga** ko'paydi. 2024- yil yakuniga qadar Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan shifokorlar umumiy sonidan ayollarning ulushi **44,8 % ni**, erkaklarning ulushi esa **55,2 % ni** tashkil etdi. 2023- yil ma'lumotlariga nisbatan ayol-shifokorlar soni **1 taga** kamaydi, erkak-shifokorlar soni esa **2 taga** oshdi.

Buxoro viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakunida Buxoro viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni **22,6 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **2,4 ming kishiga** kamaydi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar xamda o'rta tibbiyot
xodimlari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi ¹⁾
(2024- yil yakuni bo'yicha, ming kishi)

	Shifokorlar soni, jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		O'rta tibbiyot xodimlari soni	jamiga nisbatan % dagi ulushi
			erkaklar	ayollar		
Buxoro viloyati	6,7	100,0	3,7	3,0	22,6	100,0
<i>shaharlar:</i>						
Buxoro sh.	3,5	52,0	1,9	1,6	8,2	36,3
Kogon sh.	0,2	3,0	0,1	0,1	0,7	3,1
<i>tumanlar:</i>						
Olot	0,2	3,0	0,1	0,1	1,2	5,3
Buxoro	0,3	4,5	0,2	0,1	0,9	4,0
Vobkent	0,2	3,0	0,1	0,1	1,5	6,6
G'ijduvon	0,5	7,5	0,3	0,2	2,4	10,6
Jondor	0,4	6,0	0,2	0,2	1,6	7,1
Kogon	0,2	3,0	0,1	0,1	0,6	2,7
Qorako'l	0,3	4,5	0,15	0,15	1,7	7,5
Qorovulbozor	0,1	1,5	0,05	0,05	0,4	1,8
Peshku	0,2	3,0	0,1	0,1	0,8	3,5
Romitan	0,3	4,5	0,2	0,1	1,4	6,2
Shofirkon	0,3	4,5	0,2	0,1	1,2	5,3

2024- yil yakuni bo'yicha Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning eng ko'p soni Buxoro shahri (**3,5 ming kishi**)ga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Qorovulbozor tumanida (**0,1 ming kishi**)ga to'g'ri kelgan.

2024- yil yakuniga ko'ra, eng ko'p o'rta tibbiyot xodimlari Buxoro shahri (**8,2 ming kishi**) qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (**0,4 ming kishi**) kuzatilgan.

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

Ixtisosliklar va ayrim mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar bilan ta'minlanganlik
(*tegishli yil yakuni bo'yicha, 10 000 aholiga nisbatan vrachlar soni*)

	Ming kishi
Jami vrachlar,	6,7
<i>ulardan:</i>	
terapevtik ixtisosligi bo'yicha	2,6
jarrohlik ixtisosligi bo'yicha	0,8
akusher-ginekologlar (10 000 ayolga nisbatan)	0,4
pediatrlar (0-14 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	0,2
pediatrlar (0-17 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	0,2
oftalmologlar	0,08
otolaringologlar	0,1
ftiziatriklar	0,17
nevropatologlar	0,2
psixiatriklar	0,1
narkologlar	0,05
dermato-venerologlar	0,1
stomatologlar	0,8
sanitariya-epidemiologiya guruh vrachlari	0,3
rentgenologlar va radiologlar	0,1
onkologlar	0,1
boshqalar	0,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni](#)

[Vrachlar bilan ta'minlanganlik \(10 000 aholiga nisbatan vrachlar soni\)](#)

[Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni](#)

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha ayol-vrachlar soni](#)

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar sonidan ayollar ulushi](#)

[Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar sonidan erkaklar ulushi](#)


IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

Kasallanish darajasi – bu ko'rsatkich ma'lum bir davr mobaynida har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan birinchi marotaba ro'yxatga olingan kasallik holatlari sonini aks ettiradi. U yangi kasalliklarni paydo bo'lishi dinamikasini tahlil qilish, profilaktika choralari samaradorligini baholash va tibbiy resurslarni rejalashtirish uchun ishlatiladi.

Buxoro viloyatida aholining kasallanish darajasi


Kasalliklarning asosiy guruhlari bo'yicha aholining kasallanish darajasi

(2024- yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



Buxoro viloyatidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuni bo'yicha Buxoro viloyatidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni **454,3 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **99,7 ming kishiga** ko'paydi.

¹⁾ 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan.

²⁾ Perinatal yoshdagi bolalarga nisbatan.

Buxoro viloyatida davolangan bemorlar soni
(2024- yil yakuni bo'yicha)

	Davolangan bemorlar soni	
	jami ¹⁾ (ming kishi)	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Buxoro viloyati	454,3	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Buxoro sh.	212,3	46,8
Kogon sh.	17,9	3,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	16,1	3,5
Buxoro	22,7	5,0
Vobkent	26,0	5,7
G'ijduvon	39,3	8,6
Jondor	19,1	4,2
Kogon	10,3	2,3
Qorako'l	30,3	6,7
Qorovulbozor	4,7	1,0
Peshku	18,5	4,1
Romitan	20,7	4,6
Shofirkon	16,4	3,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni \(jami\)](#)

**V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar
va metama'lumotlar**

Sog'liqni saqlash statistikasi – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va ta'minlanganligi, tibbiy xodimlar), aholining umumiy salomatlik holati va uning alohida kontingentlarining miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini o'rganuvchi statistika tarmog'i hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.

Sog'liqni saqlash statistikasi sog'liqni saqlash tarmoqlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari xodimlari, bemorlarning kasalxonaga yotqizilishi, tibbiy yordam ko'rsatilishi, sog'liqni saqlash resurslari, aholining kasallanish, nogironligini qamrab oladi, hamda o'zaro bog'liq bo'lgan statistika kuzatuvlari va idoraviy ma'lumotlar tizimi bilan ifodalanadi, ularning har biri o'ziga

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.



XOS

mavzuga

va statistika kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga ega.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlar har yili shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlar sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaqor rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-tahriri \(MKB-10\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

*Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi
Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi*

Manzil: Buxoro shahar

S.Ayniy ko'chasi, 3-uy

El. manzil: www.buxstat.uz

Tel.: 65-223-68-48

